Ingliz tilini o‘rganish va mustahkamlashda metakognitiv konsepsiyaning o‘rni
The role of the metacognitive concept in learning and reinforcing English language skills

Oltiboyeva Mastura Elbek qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Sattorova Go‘zalxon Mamadaminovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: guzalxon.sattorova@mail.

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda ingliz tilini o‘rganish va mustahkamlash jarayonida metakognitiv konsepsiyaning ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilamiz. Metakognitiv strategiyalarning o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, o‘rganish samaradorligini oshirish hamda til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv o‘quvchilarda rejalashtirish, monitoring va baholash ko‘nikmalarini shakllantirib, ularning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, maqolada metakognitiv strategiyalarning ingliz tilining tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalariga ta’siri ham asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: metakognitsiya, metakognitiv strategiyalar, ingliz tilini o‘rganish, self-regulated learning, til kompetensiyasi, monitoring, baholash, rejalashtirish, EFL, o‘quv jarayoni

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the importance of the metacognitive concept in the process of learning and consolidating the English language. It highlights the role of metacognitive strategies in developing learners’ self-regulation, improving learning effectiveness, and enhancing language competencies. The analysis of research shows that a metacognitive approach fosters learners’ planning, monitoring, and evaluation skills, thereby developing their ability for independent learning. In addition, the article substantiates the impact of metacognitive strategies on English language skills, including listening, reading, writing, and speaking.

Keywords: metacognition, metacognitive strategies, English language learning, self-regulated learning, language competence, monitoring, evaluation, planning, EFL, learning process

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический анализ значения метакогнитивной концепции в процессе изучения и закрепления английского языка. Освещается роль метакогнитивных стратегий в развитии саморегуляции обучающихся, повышении эффективности обучения и формировании языковых компетенций. Анализ исследований показывает, что метакогнитивный подход способствует формированию у обучающихся навыков планирования, мониторинга и оценки, тем самым развивая их способность к самостоятельному обучению. Кроме того, в статье обосновывается влияние метакогнитивных стратегий на такие виды речевой деятельности, как аудирование, чтение, письмо и говорение.

Ключевые слова: метакогниция, метакогнитивные стратегии, изучение английского языка, саморегулируемое обучение, языковая компетенция, мониторинг, оценка, планирование, EFL, учебный процесс

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki o‘z o‘rganish jarayonini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, metakognitiv konsepsiya ingliz tilini o‘qitishda innovatsion va samarali yondashuv sifatida qaralmoqda. Metakognitsiya tushunchasi ilk bor J. Flavell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, u “insonning o‘z fikrlash jarayonini anglash va boshqarish qobiliyati” sifatida ta’riflanadi. Ayni vaqtda talabalarning ingliz tilini o‘rganish sohasida qilayotgan ishlari talaygina. Ammo bu sohada mustaqil bilim olish qobiliyati haligacha dolzarb muammo sifatida qolayotganligi, albatta, hech kimga sir emas. Ushbu maqolamizning maqsadi metokognitiv konsepsiyaning o‘quvchi-yoshlarning so‘z boyligini oshirishdagi samaradorligini ko‘rsatib berishdir. Tadqiqotimizni Termiz davlat pedagogika institutining Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs, 101-103 guruh talabalari o‘rtasida o‘tkazildi, jami 52 nafar respondent qatnashdi. Ularni nazorat va eksprimental deb nomlanuvchi 2 guruhga ajratdik. Nazorat guruhiga mavzu an’anaviy tarzda o‘tib berilgan bo‘lsa, eksprimental guruhga metognitiv rejalashtirish va monitoring usullarida dars bo‘ldi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, metokognitiv yondashuvlar qo‘llanilgan guruhda yangi so‘zlarni o‘zlashirish miqdori 25%ga nazorat guruhidan ko‘pligini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z – o‘zidan til o‘rganishda metakognitiv konsepsiya ustunlik berishini isbotlaydi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review). So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar metakognitiv strategiyalarning til o‘rganishdagi ahamiyatini keng yoritmoqda. Jumladan: Metakognitsiya o‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkonini beradi; Metakognitiv strategiyalar EFL o‘quvchilarida **self-regulated learning**ni rivojlantiradi; L2 o‘qishda metakognitiv yondashuv o‘quvchilarning tushunish darajasini sezilarli oshiradi. Shuningdek, tadqiqotlar metakognitiv trening o‘quvchilarning tinglab tushunish va umumiy til kompetensiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlagan. Hozirgi kunda butun jahon tili deya e’tirof etilayotgan ingliz tiliga qiziquvchilar soni hayratlanarli darajada ortmoqda hamda bu tilni o‘rganish nafaqat talabalar uchun, balki barcha soha vakillari uchun zaruriyatga aylanib bormoqda.Biroq ko‘plab o‘rganuvchilar grammatik qoidalarni bilsalar-da, ularni og‘zaki muloqotda foydalanishga va mustaqil o‘rganishga qiynalishadi. Bu muammoning asosiy sabablaridan biri ‘’o‘rganishdagi o‘rganishda ‘’ xatoga yo‘l qo‘yayotganliklarida deb bemalol ayta olamiz. Metokognitiv konsepsiya aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga yordam beradi. J. Flavell 1979-yilda bir g‘oyani o‘rtaga tashlagan: odam nafaqat o‘qiydi, balki o‘zining qanday o‘qiyotganini ham tushunib, nazorat qila oladi. Masalan, ingliz tili darsida talaba 'men bu mavzuni qanday o‘rganyapman?’’, ‘’qayerda xato qilyapman?’’ deb o‘zini kuzatsa, darsdan keyin ham tilni ancha tez va oson o‘rganadi. O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qitish metodikasi takomillashib borayotgan bo‘lsa-da, metakognitiv yondashuvning talabalar akademik natijalariga ta’siri hali ham keng ko‘lamda tadqiq etishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, **ushbu maqolamizning maqsadi** — ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalardan foydalanishning samaradorligini eksperimental tahlil qilish va talabalar uchun eng maqbul usullarni tavsiya etishdan iborat. **Metakognitiv konsepsiyaning nazariy asoslarini** quyidagi komponentlarga asosida izohlaymiz:

1. Rejalashtirish (Planning).O‘quvchi o‘rganishdan oldin: maqsad qo‘yadi; strategiyalarni tanlaydi.

2. Monitoring. O‘quvchi o‘rganish jarayonida: o‘z tushunishini nazorat qiladi; xatolarni aniqlaydi.

3. Baholash (Evaluation). O‘quvchi: natijalarni tahlil qiladi; strategiyalar samaradorligini baholaydi. Bu komponentlar o‘quvchilarning metakognitiv kompetensiyasini shakllantiradi. Metakognitiv yondashuv o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bu strategiyalar o‘quvchilarning o‘z o‘rganish jarayonini boshqarish qobiliyatini oshiradi.

4.**Til ko‘nikmalarini mustahkamlashda metakognitiv strategiyalar quyidagicha o‘rin egallaydi: a) Reading (o‘qish):** matnni oldindan taxmin qilish; asosiy g‘oyani aniqlash; qayta o‘qish; Natijada o‘quvchilarning tushunish darajasi oshadi .

b) Listening (tinglab tushunish): eshitilgan ma’lumotni tahlil qilish; asosiy fikrni ajratish; strategiyani o‘zgartirish; Bu esa tinglab tushunishni sezilarli yaxshilaydi .

c) Writing va Speaking: nutqni rejalashtirish; xatolarni tahlil qilish; o‘z-o‘zini baholash; Natijada kommunikativ kompetensiya rivojlanadi.

5. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish: Metakognitsiya o‘quvchilarda o‘z rivojlanishini anglash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv ko‘nikmalar: o‘rganish samaradorligini oshiradi; motivatsiyani kuchaytiradi; bilimni uzoq muddat saqlashga yordam beradi**.**

6. Bilimni mustahkamlash (Retention): Ushbu tadqiqot metodlarga asoslangan bo‘lib, ekpriment sifatida 18-20yosh oralig‘idagi darajasi intermediate (o‘rta daraja) bo‘lgan 20 ta talaba ishtirok etadi. Quyida qayd etilganidek, ular 2 guruhga ajratilinib olinadi: nazariy va eksprimental. Shuningdek, tadqiqot 2 hafta oralig‘ida davom etadi. birinchi haftada talabalardan test olinadi, keyingI xaftada esa ekprimental guruhga metokognitiv konsepsiyalar orqali tushunchalar olib boriladi, natijada ular o‘z xatosini tuzatish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatilinadi. Ko‘plab xalqaro tadqiqotlar, jumladan, **EEF (**Educational Endowment Foundation**2018)** hisobotlari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichini o‘rtacha **30% ga** yaxshilaydi va nazariy guruhdagi o‘quvchilarga qaraganda 7-9 oy ilgarilab ketishi isbotlangan. Shuningdek, dunyoga mashhur tilshunos olim **Paul Nation** o‘zining ’’*Learning Vocabulary in Another Language’’* asarida isbotlaganki, talaba yangi so‘zni shunchaki yodlamasdan, uni qanday eslab qolish strategiyasini (metakognitsiya) rejalashtirsa, so‘zning xotirada qolish darajasi 3 barobar ortadi deya o‘tkazgan tajribalari bu strategiya aynan chet tilini eshitib tushunishda eng yuqori samaradorlik berishini isbotlagan.

Natijalar va tahlil. Olingan natijalar EEF (2018) hisobotidagi 30% lik o‘rtacha ko‘rsatkichga yaqin bo‘lib, bizning tadqiqotimizda 25% lik o‘sish qayd etildi. Bu esa metakognitiv strategiyalarning nafaqat nazariyada, balki amaliyotda ham yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi va bu 25% lik o‘sish shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtirishni boshlaganlarida, audio matndagi ma’lumotlarni qabul qilish darajasi keskin ortadi. Nazorat guruhidagi past o‘sish esa, faqatgina an’anaviy metodlar bilan yuqori natijaga erishish qiyinligini anglatadi. Self-testing (mustaqil test ishlash), reflection (o‘z-o‘zini tahlil qilish, fikr yuritish), revision (qayta ko‘rib chiqish), orqali bilimni mustahkamlaydi va uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi.

Taklif va tavsiyalar. Ingliz tili darslarida quyidagi metakognitiv usullarni qo‘llashni tavsiya etamiz: Ovoz chiqarib fikrlash strategiyasi (think-aloud strategy); o‘z-o‘zini baholash varaqasi (self-assessment checklist); o‘rganish kundaligi (learning diary); refleksiya savollari (reflection questions); metakognitiv strategiyalarni o‘rgatish (strategy training). Umuman olganda metakognitiv strategiyalar ingliz tili darslarida talabalarning mustaqil bilim olish va tinglab tushunish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuvni oliy ta’lim dasturlariga kengroq joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, metakognitiv strategiyalar talabalarga nafaqat yangi tilni o‘rganishda yuqori samaradorlikka erishish, balki o‘quv jarayonini ongli ravishda boshqarish imkonini ham beradi. Ushbu strategiyalar orqali o‘quvchilar o‘z o‘rganish faoliyatini rejalashtirish, jarayon davomida monitoring qilish hamda yakuniy natijalarni baholash ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning o‘qishga nisbatan mas’uliyatini oshirib, mustaqil va faol o‘rganuvchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Metakognitiv konsepsiya ingliz tilini o‘rganish va mustahkamlashda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilishni shakllantirish hamda strategik va tanqidiy fikrlashni takomillashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, metakognitiv yondashuv o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, metakognitiv strategiyalarni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish o‘quvchilarning ingliz tilining barcha asosiy ko‘nikmalari — tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish — bo‘yicha kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantiradi. Natijada, o‘quvchilar tilni chuqurroq anglaydi, bilimlarini uzoq muddat saqlab qoladi hamda real kommunikativ vaziyatlarda erkin qo‘llay oladi. Shuningdek, metakognitiv yondashuv zamonaviy ta’lim talablariga, xususan, o‘quvchilarning **self-regulated learning** ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘liq mos keladi. Bu esa ularning nafaqat til o‘rganishda, balki kelajakdagi kasbiy va akademik faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi. Shu bois, ingliz tilini o‘qitishda metakognitiv konsepsiyani keng qo‘llash va uni amaliyotga samarali tatbiq etish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring. *American Psychologist*, 34(10), 906.
2. Anderson, N. J. (2002). *The Role of Metacognition in Second Language Teaching and Learning.* ERIC Digest.
3. Educational Endowment Foundation (EEF). (2018). *Metacognition and Self-regulated Learning: Guidance Report.*
4. Nation, P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language.* Cambridge University Press.
5. Vandergrift, L. (2002). It's more than a test: An exploration of the metacognitive awareness of second language listeners. *Language Learning*, 52(2), 225-258.
6. O'Malley, J. M., & Chamot, A. U. (1990). Learning Strategies in Second Language Acquisition. Cambridge University Press.
7. Goh, C. C. M. (1997). "Metacognitive Awareness and Second Language Listeners." ELT Journal, 51(4), 361-369.
8. Wenden, A. (1987). "Metacognition: An Expanded View on the Cognitive Abilities of L2 Learners." Language Learning, 37(4), 573-597.
9. Zhang, L. J., & Goh, C. C. M. (2006). "Strategy Knowledge and Perceived Strategy Use: Singaporean Students' Awareness of Listening and Speaking Strategies." Language Awareness, 15(3), 199-219.
10. Hauck, M. (2005). "Metacognitive Knowledge, Metacognitive Strategies, and CALL." In CALL Research Perspectives (pp. 65-86). Routledge.
11. Zimmerman, B. J. (1990). Self-regulated learning and academic achievement: An overview. Educational Psychologist, 25(1), 3–17